

**O‘RTA ASRLARDA TIBBIYOTNING RIVOJLANISHIGA HISSA QO‘SHGAN  
O‘RTA OSIYOLIK OLIMLAR**

**Qurbonov Abdulaziz Abduraxmon o‘g‘li**  
*Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali*

**Annotatsiya:** *Abu Mansur Qamariy, Umar Chag‘miniy, Ismoil Jurjoniy va O‘rta asrlarda tibbiyotning rivojlanish etaplari haqida gap yuritiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *“Dorilar xazinasi”, “Travmatologiya”, “Xorazmshoh xazinasi”*

Asosiy qism: Abu Mansur Qamariy, to‘liq ismi Abu Mansur Xasan ibn Nux-al-Qamariy uning yashagan sanasi noma‘lum, ammo bu sana Abu Ali ibn Sinoning o‘smirlik davrlariga to‘g‘ri keladi (X ning oxir XI ning bosh ). Shuningdek, u Abu Mansur Buxoriy nomi bilan ma‘lum bo‘lib , Buxoro amirining shaxsiy shifokori bo‘lgan. Uning mashhur asarlari “Ksallik va kasallar”, “Ko‘krak qafasi kasalliklarini davolash haqida”, Qorin vodyankasi haqida”, “Mansurning tibbiyoti”, “Oddiy dorilar haqida katta jamlanma”, “Boylik va farovonlik”, kabilar kiradi. “Kasallik va kasallar” kitobida kasallik va sog‘lik muammolarini ochish, odam organizmi xususiyatlari, mijoz tushunchasini yoritib bergan. Qamariy “boylik va farovonlik” asarida sog‘lik bu farovonlik deb hisoblaydi; kasalliklar haqida yozadi (ichki va tashqi, isitmalar); tashhislash va davolash usullari haqida, shuningdek, sog‘lik birinchi navbatda sog‘lom turmush tarziga bog‘liqligi to‘g‘risida yozilgan.

Umar Chag‘miniy (Maxmud ibn Muhammad ibn Umar Chag‘miniy) – hozirgi Buxoro hududidagi Chag‘min qishlog‘ida tug‘ilgan. Tug‘ilgan yili aniq emas, 1221-yil urganchda vafot etgan. Yoshligida u Urganchga ko‘chib kelgan, va u yerda ta‘lim olgan va shifokor sifatida tanilgan. Keyin o‘zini malakasini oshirish uchun samarqandga ko‘chadi va ko‘p fanlarni o‘rganadi – astronomiya, matematika, fizika, falsafa, tibbiyot. Urganchga qaytgach o‘zini ilmiy faoliyatini davom ettiradi va bir qancha noyob asarlar yozadi. U Kopernikdan bir necha yuz yil avval quyosh sistemasini geliosentrik tuzilishi haqida va fasllarning almashinishi yerning quyosh atrofida aylanishi bilan bog‘liqligi haqida aytgan. U yerning radiusini va aylanasini, oygacha bo‘lgan masofani hisoblagan. Tibbiyotda u o‘sha vaqtning eng tajribali shifokori sifatida mashhurlikka erishgan. U “Kichik qonun” kitobini yozgan, ba‘zi olimlar uni Ibn Sinoning “Tib qonunlari” asarining qisqartirilgan shakli deb hisoblashadi. Kitob 10 bobdan iborat bo‘lib ular esa bo‘limlarga bo‘lingan. Kitobda amaliy va uslubiy tibbiyot savollari yoritilgan. Kitobda geografiya, anatomiya, gigiyena, ovqat va suyuqliklar, ularni iste‘mol qilish va organizmga ta‘siri haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Shu bilan birga kitobda tashqi va ichki a‘zolari, teri kasalliklari va boshqa kasalliklarni davolash haqida yozilgan. O‘z vaqtida kitob tabiblar orasida katta mashhurlikka ega bo‘lgan.

Ismoil Jurjoniy (Zayniddin Abu Ibrohim Ismoil ibn Xasan ibn Axmad al-Husayn al-Jurjoniy). 1080-yil Eronning Gurgan (Jurjon) shahrida tug‘ilgan, 1141-yil mavrda vafot etgan. Lekin, M.A Gaidov fikriga ko‘ra uning tug‘ilish joyi Xorazm hududidagi Jurjoniyadir. 1110-yil u Urganch shohi Qutbiddin Muhammad Anush Teginning

saroy shifokori bo‘lgan. Bu uning hayotining eng sermahsul paytlari edi: u saroy bo‘yidagi shifoxona va dorixonani boshqarardi, saroy shifokori sifatida ilmiy va amaliy mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanadi, kitob yozadi. Bir necha vaqtdan so‘ng u Mavrga keladi, shu yerda umrining oxirigacha yashaydi. Uning quyidagi tibbiyotga oid asarlari mavjud: “Xorazmshoh xazinasini”, “Kasalliklarni aniqlash usullari”, “Ibn Sino haqida so‘z”, “Tibbiyotning mohiyati”, “Dorilar xazinasini”.

“Xorazmshoh xazinasini”- organizm anatomiyasi va fiziologiyasidan boshlab, kasalliklarga tashxis qo‘yish va davolash haqida 600 betdan ortiq ensiklopedik asardir. Bu kitobda salomatlikni saqlash uchun kasalliklarning oldini olish chora-tadbirlari muhimligi haqida aytib o‘tilgan. Uning fikriga ko‘ra odam tabiatning bir qismi bo‘lib, u tabiat bilan uzviy bog‘liq. Ko‘p narsalarda uning fikri Ibn Sinoning fikri bilan to‘g‘ri keladi. Bu kitobni ichki kasalliklar propidevtikasi, travmatologiya, xususiy patalogiya va terapiya bo‘yicha qo‘llanma deb hisoblasa bo‘ladi.

“Dorilar xazinasini” nomidan ko‘rinib turganidek, farmakologiya va dorishunoslik haqidagi asardir. “Tibbiyotning mohiyati” bu amaliy tibbiyot bo‘yicha asarlar to‘plamidir. Unda qisqa shaklda o‘sha vaqtda eng ko‘p uchragan kasalliklarning simptomlari va davolash usullari yozilgan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. “Tibbiyot tarixi” Toshkent-2019
2. X.E.Rustamova, N.K.Stojarova, Sh.A.Abdurashitova,
3. Q.Ch.Nurmamatova
4. “Tibbiyot tarixi” Toshkent-2005 A.A.Qodirov